



## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO'ZLARNING O'RGANILISHI

Mamatmo'minov Turg'un Anorboyevich<sup>1</sup>,

Mengboev Sherniyoz Xuurram o'g'li<sup>2</sup>

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6568089>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 20- may 2022

### KALIT SO'ZLAR

Turkiy tillar, O'zbek tii,  
grammatika, taqlid  
so'zlar

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola zamonaviy o'zbek tilida taqlid so'zlarning o'r ganilish jihatlari yuzasidan ayrim tahlillarga bag'ishlanadi va bu borada xususiy xulosalarni taqdim etadi. Turkiy tillar tilshunosligida taqlid so'zlarni o'r ganishga bag'ishlangan maxsus ishlar o'tgan asrning yigirmanchi yillardan keyin yuzaga kelgan va turkiy tillarning ko'pchiligidagi taqlidiy so'zlar kategoriyasi u yoki bu darajada ishlangan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala 60-yillargacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o'r ganilgan emas. O'sha paytgacha o'zbek tili bo'yicha yozilgan grammatikalarda va qo'llanmalarda taqlidiy so'zlarga juda kam o'r in berilgan va ularning ko'pchiligidagi taqlidiy so'zlar undov so'zlarning ajralmas qismi sifatida ko'rsatilar edi.

Bugungi kunda barcha sohalar qatorida o'zbek tilshunosligida qator o'zgarish va yangilanishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar, albatta, jamiyat taraqqiyotining rivojlanishidan darak beradi. Bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'r ganish, uning mantiqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish hayotimizning eng asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Qisqa davr ichida o'zbek tilshunosligi sezilarli darajada muvofaqiyatlarga erishdi. Lisoniy birliklarni yangidan yangi metod va usullar asosida tadqiq etish, ularning til tizimidagi tutgan o'rnini yoritib berish oldimizga turgan eng asosiy vazifalardan biridir. Uzoq yillik tarixga ega O'zbek tili hozirgi shaklga, qoidalari ga, ko'rinishiga kelishida

bir necha olimlarning xissalari kattadir. Xususan, tilimizdagi taqlid so'zlar borasidagi tilshunoslik qoidalari va shakllari ham ko'plam tilshunos olimlarning uzoq yillik izlanishlari natijasidir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taqlidiy so'zlar masalasi olimlarimiz e'tiborini o'ziga tortdi. Ular mavzu ustida ma'lum darajada kuzatishlar olib borib, u yoki bu holatdagi o'z fikrlarini o'rtaga tashladilar. Jumladan, A.N.Kononov «O'zbek tili grammatikasi» asarida taqlidiy so'zlarni undovlarning bir ko'rinishi deb ko'rsatsa, 1956-yili nashr qilingan «Hozirgi turk adabiy tilining grammatikasi» asarida ularni alohida so'z turkumi qilib ajratadi. Demak, A.N.Kononov oldingi asarlarida



tasviriy so'zlarni undovlarning bir turi sifatida ko'rsatsa ham, 1956-yili ularni mustaqil so'z turkumi qilib ajratish kerak, degan xulosaga keladi va «Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi» asarida bu xulosasini qat'iy bayon qiladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha tariqasida, A.G'ulomov o'zining maktablar uchun tuzgan darsliklarida, «O'zbek tili morfologiyasiga kirish» asarida taqlidiy so'zlarni undovlarning bir turi sifatida ko'rsatsa-da, 1957-yil avgustida maktablarda o'zbek tilini o'qitishni yaxshilash masalalari bo'yicha o'tkazilgan respublika konferensiyasida qilgan ma'rzasida taqlidiy so'zlarni ayrim tur qilib ajratish lozimligini alohida qayd qiladi. U.Tursunov va J.Muxtorov, S.Mutallibov, S.Usmonovlar o'z asarlarida tasviriy so'zlarni undovlardan ajratib, alohida so'z turkumi sifatida qaraydilar. S.Mutallibov 1956-yili «O'qituvchilar gazetasi»da taqlid so'zlar to'g'risida maqola e'lon qildi. Bu maqolada tovushga taqlid so'zlar ham, obrazli so'zlar ham tovushga taqlid so'zlar termini bilan ataladi. Ishda ancha chalkash fikrlar ham aytilgan.

Ammo ushbu keltirilgan fikrlarga S.Mutallibov keyinroq nashr qilgan ocherklarida bu masalaga aniqliklar kiritdi. Lekin har ikkala ishda ham tasviriy so'zlarga oid ayrim misollarni izohlashda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, ko'proq tovushga taqlid so'zlarni harakat va holat tasvirini bildiruvchi so'zlar bilan aralashtirib yuborish hollari uchraydi. Uning maqolasida yaltiroq, yaltult, lim-lim, g'imir-g'imir so'zlarini, ocherklarida esa dikillamoq<sup>21</sup> kabi so'zlarni tovushga taqlid deb atashi fikrimizning isbotidir. Keltirilgan so'zlarni

tovushga taqlid so'z emas, holatga taqlid (obrazli) so'zlar deb hisoblash kerak.

G'.Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida chop etilgan, E.Begmatov tomonidan yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarida taqlidiy so'zlar «Tasviriy so'zlar» termini ostida berilib, nisbatan kengroq ma'lumotlar berilgan. Unda tasviriy so'zlarga quyidagicha ta'rif beriladi: «Obyektiv olamdag'i xilma-xil tovushlar hamda narsa va hodisalar harakatining obrazli holatlariga taqlid qilish orqali paydo bo'lgan so'zlar tasviriy so'zlar deb ataladi» Ishda tasviriy so'zlar ma'no jihatidan ikkiga: taqlidiy so'zlar va obrazli so'zlar; tuzilishiga ko'ra uchga: sodda, takroriy va juft tasviriy so'zlarga bo'lib o'rganilgan. Shuningdek, tasviriy so'zlarning ba'zi fonetik xususiyatlari, tasviriy so'zlarning so'z yasash tizimidagi o'rni, ulardagi otlashish (shov-shuv+i kabi) hodisasi va ularning muhim sintaktik vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Ishda tasviriy so'zlar boshqa so'z turkumlari hisobiga boyimasligi, yangi tasviriy so'zlar ularning o'zidan ma'lum grammatik shakllar vositasida hosil qilinishini (shir-t-shirt, shir-q-shirq, shiqir-shiqir, shar-t-shart kabi) tasviriy so'zlarning morfologik belgisi sifatida talqin qilingan.

R.Qo'ng'urov monografiyaning «Tasviriy so'zlarning o'rganilish tarixidan» deb nomlangan qismida turkologiyada tasviriy so'zlarning o'rganilishi haqida to'xtalib, turkolog olimlarning tasviriy so'zlar borasidagi qarashlariga u yoki bu darajada fikr bildiradi. «Tasviriy so'zlarning umumiy xarakteristikasi» qismida tasviriy so'zlar haqida umumiy fikrlar bildirib, taqlid so'zlar borasida quyidagicha xulosaga keladi:



- a) o'zlarining leksik ma'nolariga ega;
- b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga ko'tara oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma kollektiv asosan ularni bir xilda tushunadi;
- c) o'zlariga xos qurilishga, formaga ega;
- d) sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan keladi;
- e) gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana shu xususiyatga ega bo'lgan taqlidni so'z deb hisoblash mumkin.

Xulosa o'rnidagi, taqlid so'zlar har bir guruh yana ma'lum semantik maydonlarga birlashtirilgan. Tovushga taqlid so'zlar – jonli predmetlar tovushiga taqlid asosida:

kishilarning harakatlaridan paydo bo'lgan va turli hayvon, jonivorlar tovushlariga; jonsiz predmetlar tovushiga taqlid asosida: qattiq jismlar; har xil mexanizmlar, motorlar, transport kabilarning harakatidan va quollardan o'q uzish paytida paydo bo'lgan; gazsimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo bo'lgan tovushlarga taqlid so'zlar tarzida umumlashtirilgan.

Ushbu sohada O'zbek tilshunos olimlari A.N.Kononov, U.Tursunov, J.Muxtorov, S.Usmonov va R.Qo'ng'urovlar o'zlarining ilmiy asarlari va ulardagi izlanishlari hamda tahlillari bilan o'rinali va asosli ma'lumotlar qoldirishgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. O 'zbek tilining tarixiy grammatikasi: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /G '. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. M ahm udov.T .: O 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 528 b.
2. Vosifiy. Badoe ul vaqoe (D ilovor tarjimasi. Qo'Iyozma, O 'zFA Sharqshunoslik instituti, inv. № 3344)
3. O 'rta Osiyo tafsiri (Q o'lyozma, Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg b o 'lim i, S— 197).